



2023- yil yanvar-mart oylari uchun
dastlabki ma'lumot



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
74 224-80-57



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-mart oylarilarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 227,0 mln AQSh** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **277,4 mln AQSh** dollariga yoki **29,2 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 227,0** - **29,2 %**

(2022- y.: **949,6**)



Saldo

2023- y.: **- 669,2** (2022 r.: **- 522,4**)



Eksport

2023- y.: **278,9** - **30,6 %**

(2022- y.: **213,5**)



Tovarlari: **275,6**



Xizmatlari: **3,3**



Import

2023- y.: **948,1** - **28,8 %**

(2022- y.: **736,1**)



Tovarlari: **914,4**



Xizmatlari: **33,7**











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **278,9** mln AQSh dollariga (**30,6** % ga ko‘paydi) va import hajmi **948,1** mln AQSh dollariga (**28,8** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **669,2** mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar-mart, mln AQSh dollari)

Koreya Respublikasi TSA – 372,1 Eksport: 0,0 Import: 372,1  30,3%	XXR TSA – 307,9 Eksport: 21,6 Import: 286,3  25,1%	Qozog‘iston TSA – 105,2 Eksport: 105,2 Import: 3,0  8,6%	Rossiya Federatsiya TSA – 84,3 Eksport: 53,6 Import: 30,7  6,9%	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 79,0 Eksport: 71,9 Import: 7,1  6,4%
Braziliya TSA – 64,2 Eksport: 0,1 Import: 64,2  5,2%	Meksika TSA – 48,9 Eksport: - Import: 48,9  4,0%	AQSH TSA – 43,8 Eksport: 0,1 Import: 43,7  3,6%	Turkiya TSA – 28,3 Eksport: 8,0 Import: 20,3  2,3%	Hindiston TSA – 17,2 Eksport: 0,0002 Import: 17,2  1,4%

Andijon viloyati jahonning **68** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**30,3** %), XXRda (**25,1** %), Qozog‘istonda (**8,6** %), Rossiya Federatsiyasida (**6,9** %), Qirg‘iz Respublikasida (**6,4** %) va Braziliyada (**5,2** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qirg‘iz Respublikasi, Qozog‘iston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston bilan **1,2** barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023-yil yanvar-mart mln AQSh dollari)



Qozog‘iston – 99,2



Qirg‘iz Respublikasi – 64,8



Tojikiston – 3,4























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln AQSh dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Koreya Respublikasi	296,7	421,2	372,1
 <i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,002
<i>Import</i>	296,6	420,9	372,1
XXR	89,5	214,9	307,9
 <i>Eksport</i>	23,5	30,7	21,6
<i>Import</i>	66,0	184,2	286,3
Qozog'iston	88,8	57,0	105,2
 <i>Eksport</i>	86,6	55,9	102,2
<i>Import</i>	2,2	1,1	3,0
Rossiya Federatsiyasi	36,7	59,5	84,3
 <i>Eksport</i>	13,6	24,3	53,6
<i>Import</i>	23,1	35,2	30,7
Qirg'iz Respublikasi	63,9	81,8	79,0
 <i>Eksport</i>	54,4	75,6	71,9
<i>Import</i>	9,5	6,2	7,1
Braziliya	3,8	5,7	64,2
 <i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	3,8	5,6	64,1
Meksika	0,5	1,7	48,9
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,5	1,7	48,9
AQSh	22,9	9,5	43,8
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
<i>Import</i>	22,8	9,4	43,7
Turkiya	21,5	26,0	28,3
 <i>Eksport</i>	5,2	11,7	8,0
<i>Import</i>	16,3	14,3	20,3
Hindiston	3,2	8,1	17,2
 <i>Eksport</i>	0,004	0,2	0,0002
<i>Import</i>	3,2	7,9	17,2


	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Germaniya	1,5	4,2	9,2
	<i>Ekspost</i>	0,2	0,5	0,2
	<i>Import</i>	1,3	3,7	9,0
	Belarus	1,0	1,8	7,8
	<i>Ekspost</i>	0,3	0,3	5,9
	<i>Import</i>	0,7	1,5	1,9
	Chexiya	2,1	6,2	6,5
	<i>Ekspost</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	2,1	6,2	6,5
	Slovakiya	1,6	2,0	5,5
	<i>Ekspost</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1,6	2,0	5,5
	Ozərbayjon	1,5	3,5	5,3
	<i>Ekspost</i>	1,3	3,3	5,3
	<i>Import</i>	0,2	0,2	-
	Polsha	3,0	2,1	4,2
	<i>Ekspost</i>	0,5	0,1	0,3
	<i>Import</i>	2,5	2,0	3,9
	Italiya	3,0	6,1	3,8
	<i>Ekspost</i>	0,4	1,5	0,7
	<i>Import</i>	2,6	4,6	3,1
	Tojikiston	0,5	1,1	3,6
	<i>Ekspost</i>	0,2	0,8	3,5
	<i>Import</i>	0,3	0,3	0,1
	Tailand	8,2	3,5	3,3
	<i>Ekspost</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	8,2	3,5	3,3
	Tayvan	0,2	1,1	3,0
	<i>Ekspost</i>	-	0,0001	-
	<i>Import</i>	0,2	1,1	3,0



ANDIJON VILOYATINIG HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-mart)*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	1 227,0	129,2	100,0
Andijon sh.	158,5	140,2	12,9
Xonobod sh.	28,8	168,5	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	15,5	217,0	1,3
Andijon	23,3	134,0	1,9
Baliqchi	14,3	73,7	1,2
Bo'ston	5,2	96,3	0,4
Buloqboshi	14,7	374,2	1,2
Jalaquduq	10,8	73,6	0,9
Izboskan	4,3	65,0	0,3
Ulug'nor	6,2	105,3	0,5
Qo'rg'ontepa	12,7	59,7	1,0
Asaka	856,1	134,3	69,8
Marhamat	8,1	114,3	0,7
Shahrixon	28,4	91,3	2,3
Paxtaobod	5,6	118,6	0,5
Xo'jaobod	33,4	90,3	2,7

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **69,8** % ulush bilan **856,1** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Izboskan tumani **0,3** % ulush bilan **4,3** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **23,6** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,1** % ga kamayib, so'ngi uch yilda o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,7** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **76,4** % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, **289,0** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **245,9** mln AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **43,1** mln AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart, mln AQSh dollari)

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 84,3
Eksport – 53,6
Import – 30,7



Qozog'iston

TSA – 105,2
Eksport – 102,2
Import – 3,0



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 79,0
Eksport – 71,9
Import – 7,1



Ozərbayjan

TSA – 5,3
Eksport – 5,3
Import – -



Belarus Respublikasi

TSA – 7,8
Eksport – 5,9
Import – 1,9



Tojikiston

TSA – 3,6
Eksport – 3,5
Import – 0,1



Moldova Respublikasi

TSA – 0,7
Eksport – 0,6
Import – 0,1



Ukraina

TSA – 1,4
Eksport – 1,4
Import – -



Turkmaniston

TSA – 1,8
Eksport – 1,6
Import – 0,2



Armaniston


TSA – 0,0
Eksport – 0,0
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**36,4** %), Rossiya Federatsiyasi (**29,2** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**27,3** %) davlatlari bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIGAA'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **276,3** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **233,6** mln AQSh dollari, import hajmi esa **42,7** mln AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **223** taga yetdi va ular tomonidan **278,9** mln AQSh dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **30,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	213,6	278,9	111,1	130,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,4	4,5	115,5	84,5	2,5	1,6
Ichimliklar va tamaki	0,01	1,1	23,4	70,8 b.	0,01	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,4	1,7	33,5	127,9	0,6	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	0,2	346,7 b.	8,9	1,3	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,00001	0,0002	4,3	18,9 b.	0,0	0,0001
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	7,3	2,4 b.	8,4 b.	0,4	2,6
Sanoat tovarlari	80,1	71,1	177,6	88,7	37,5	25,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	56,6	105,9	62,2	187,1	26,5	38,0
Turli xil tayyor buyumlar	64,6	83,8	141,1	129,6	30,3	30,0
Xizmatlar	1,9	3,3	152,9	175,9	0,9	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,8 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunolari (**38,0 %**), turli xil tayyor buyumlar (**30,0 %**), sanoat tovarlari (**25,5**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**1,6 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	4 119,2	91,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	182,5	61,0
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	158,8	32,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	61,9	6,2 b.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1 144,0	70,8 b.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 383,0	116,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	178,0	3,1 b.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	106,4	126,2
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	56,0	2,4 b.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	242,0	8,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	0,2	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 836,9	50,5 b.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	187,9	717,2
Noorganik kimyo moddalari	109,5	82,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	63,9	52,0


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	62 336,2	89,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	4 269,2	126,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 533,6	29,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 020,6	2,4 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	66 442,1	192,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	33 004,6	182,7
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	2 915,5	95,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 591,2	4,9 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	76 164,2	128,3
Poyabzal	5 096,2	185,5
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 220,2	115,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	681,2	95,6

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariга **245,9** mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **88,2** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Turkiya, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **55,8** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-mart, % da)





ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Qozog'iston	55,9	102,2	64,6	182,7	2	1
Qirgiz Respublikasi	75,6	71,9	138,9	95,1	1	2
Rossiya Federatsiyasi	24,2	53,6	179,1	2,2 b.	4	3
Xitoy	30,7	21,6	130,7	70,3	3	4
Turkiya	11,7	8,0	2,2 b.	68,4	5	5
Belarus	0,3	5,9	98,3	19,0	16	6
Ozarbajjon	3,3	5,3	2,6 b.	160,7	6	7
Tojikiston	0,8	3,5	3,7 b.	4,5 b.	11	8
Turkmaniston	0,1	1,6	25,4	23,2 b.	26	9
Ukraina	0,8	1,4	26,8	177,0	12	10
Italiya	1,5	0,7	4,0 b.	45,7	18	11
Moldova Respublikasi	1,1	0,6	68,7	56,5	8	12
Eron Islom Respublikasi	0,4	0,4	2,1 b.	104,4	10	13
Polsha	0,1	0,3	27,8	2,3 b.	15	14
Portugaliya	-	0,3	-	-	23	15
Germaniya	0,5	0,2	2,6 b.	42,9	14	16
Afg'oniston	3,2	0,2	30,3 b.	5,0	7	17
Pokiston	1,1	0,2	56,5 b.	14,8	9	18
AQSh	0,04	0,1	40,6	2,5 b.	28	19
Bolgariya	-	0,1	-	-	27	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-mart)*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	278,9	130,6	100,0
Andijon sh.	25,8	124,2	9,3
Xonobod sh.	10,2	129,3	3,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	10,7	227,1	3,8
Andijon	11,7	233,0	4,2
Baliqchi	13,3	80,0	4,8
Bo'ston	4,8	94,7	1,7
Buloqboshi	3,1	164,5	1,1
Jalaquduq	8,8	64,4	3,2
Izboskan	3,0	94,6	1,1
Ulug'nor	5,9	114,6	2,1
Qo'rg'ontepa	8,0	58,9	2,9
Asaka	120,1	177,2	43,1
Marhamat	5,2	148,0	1,8
Shahrixon	21,7	173,2	7,8
Paxtaobod	4,2	139,8	1,5
Xo'jaobod	21,6	75,1	7,7

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Asaka

120,1

Andijon sh.

25,8

Shahrixon

21,7

Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Paxtaobod

4,2

Buloqboshi

3,1

Izboskan

3,0

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **43,1** % bilan **120,1** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Izboskan tumani **1,1** % bilan **3,0** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

* *Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.*



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI











Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oylarida **14,5** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,4 %** ga yoki **1,7** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (**61,4 %**), Rossiya Federatsiyasi (**38,0 %**), Belarus (**0,6 %**) hamda Qozog'iston (**0,3 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **4,2 mln** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,4 %** ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **1,5 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023-yil yanvar-mart, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,7 ming tonna</p>  <p>↑ 142,7 %</p>	<p>Karam</p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>2,2 ming tonna</p>  <p>↑ 48,9 %</p>	<p>Gilos</p> <p>- mln. AQSH dollari</p> <p>- ming tonna</p>  <p>↓ - %</p>	<p>Pomidor</p> <p>0,3 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p>  <p>↓ 64,8 %</p>
<p>Shaftoli</p> <p>- mln. AQSH dollari</p> <p>- ming tonna</p>  <p>↑ - %</p>	<p>Bodring</p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>0,5 ming tonna</p>  <p>↑ 3,0 m.</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>0,02 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p>  <p>↑ 40,7 %</p>	<p>Piyoz</p> <p>- mln. AQSH dollari</p> <p>- ming tonna</p>  <p>↑ - %</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023-yil yanvar-mart)

Davlatlar	Ming tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	12 886,1	2 527,3	61,4
 Rossiya Federatsiyasi	1 423,6	1 565,7	38,0
 Belarus	18,0	25,0	0,6
 Qozog'iston	10,6	1,3	0,03

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **61,4** %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **1,6** barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.








Xususan, 2023- yil yanvar-mart oylari yakuni bo‘yicha **101,5 mln** AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **36,4 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **21,7 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**74,5 %**), naqshli mato (**12,7 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **206** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **15** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSh dollari)



	2022- yil	2023- yil
Jami:	129 665,5	101 492,2
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	59 239,4	75 654,5
 Naqshli mato	9 023,2	12 859,1
 Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	2 207,2	2 533,7
 Paxtadan yigirilgan ip	51 121,0	0,0
 Gilamlar	1 025,9	2 977,7
 Paxtadan gazlamalar	1 095,2	1 712,8
 Paxta mahsulotlari	1 341,2	668,7

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSh dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Qirg‘iz Respublikasi	55 570,9	51 768,3	93,2
 Rossiya Federatsiyasi	21 180,3	31 962,0	150,9
 Belarus	207,7	5 558,2	26,7 b.
 Qozog‘iston	3 422,5	3 912,6	114,3
 Tojikiston	541,9	2 984,6	5,5 b.
 Ukraina	685,8	1 346,1	196,3
 Turkiya	11 488,6	749,7	6,5
 XXR	30 656,4	695,4	2,3
 Italiya	1513,3	689,3	45,5
 Moldova Respublikasi	1 037,0	593,6	57,2
 Ozarbayjon	427,8	468,9	109,6
 Eron Islom Respublikasi	349,0	350,9	100,5
 Portugaliya	-	298,6	-
 BQ Buyuk Britaniya	-	94,8	-
 Litva	-	19,3	-
 Boshqalar	2 584,5	-	-




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**51,0 % – 51,8 mln AQSh dollari**) va Rossiya Federatsiyasi (**31,5 % – 32,0 mln AQSh dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAREKSPORTITARKIBI (2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



 Xizmatlar eksporti hajmi **3 320,0** mln AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **75,9** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**41,0** %), moliyaviy xizmatlar (**34,0** %), transport xizmatlar (**21,0** %) va safarlar (turizm) (**4,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI

2023- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi **948,1** mln AQSh dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **128,8** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**64,5** %), sanoat tovarlari (**18,6** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8,3** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **28,8** mln AQSh dollariga ko'paydi va **948,1** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **33,7** mln AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	736,1	948,1	155,4	128,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,8	4,3	92,0	111,8	0,5	0,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	-	121,1	0,01	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,8	4,2	161,9	88,2	0,6	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,9	6,4	63,2	3,4 b.	0,3	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,02	1,5	0,5	607,5 b.	-	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	45,6	78,6	2,1 b.	172,5	6,2	8,3
Sanoat tovarlari	148,6	176,4	2,1 b.	118,7	20,2	18,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	469,5	611,4	199,2	130,2	63,8	64,5
Turli xil tayyor buyumlar	28,7	31,4	159,0	109,6	3,9	3,3
Xizmatlar	33,1	33,8	92,0	111,8	4,5	3,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	1 225,3	190,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 118,9	175,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	512,1	2,1 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	507,8	107,4
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	86,0	121,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	1 339,3	127,8
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	1 237,6	111,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 138,7	65,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	337,7	91,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	3 554,5	2,6 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 881,8	5,2 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 374,7	557,7 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	122,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	31 908,9	2,3 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14 358,1	2,9 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	12 227,5	96,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8 677,3	132,5


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	67 262,3	197,1
Cho'yan va po'lat	45 927,2	124,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	37 223,8	68,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	16 487,3	114,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	431 156,2	123,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	52 485,5	173,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	44 923,8	74,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	36 443,8	2,1 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	17 475,3	139,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	7 910,2	72,6
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 839,0	144,8
Poyabzal	390,4	114,9



2023- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **4,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oylarida Andijon viloyati **57** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning **9,1** qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)





ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	420,9	372,1	141,9	88,4	1	1
Xitoy	184,2	286,3	2,8 b.	155,4	2	2
Braziliya	5,6	64,2	149,3	1137,2	10	3
Meksika	1,7	48,9	3,7 b.	29,2 b.	17	4
AQSh	9,4	43,7	41,4	4,6 b.	6	5
Rossiya Federatsiyasi	35,2	30,7	152,4	87,1	3	6
Turkiya	14,3	20,3	87,8	141,6	5	7
Hindiston	7,9	17,2	2,5 b.	2,2 b.	7	8
Germaniya	3,7	9,1	2,8 b.	2,4	12	9
Qirg'iziston	6,1	7,1	64,9	115,4	9	10
Chexiya	6,2	6,5	3,0 b.	105,5	8	11
Slovakiya	2,0	5,5	128,4	2,8 b.	15	12
Polsha	2,0	3,9	81,0	197,6	16	13
Tailand	3,5	3,3	42,6	95,8	13	14
Italiya	4,6	3,1	176,1	67,8	11	15
Qozog'iston	1,1	3,0	51,2	2,7 b.	21	16
Tayvan	1,1	3,0	4,9 b.	2,6 b.	20	17
Eron Islom Respublikasi	2,7	2,4	170,2	88,3	14	18
Belarus	1,5	1,9	2,2 b.	125,7	18	19
Litva	0,6	1,5	2,5 b.	2,3 b.	22	20



ANDIJON VILOYATI INING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023-yil yanvar-mart)

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	948,1	128,8	100,0
Andijon sh.	132,7	143,7	14,0
Xonobod sh.	18,6	201,9	2,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	4,8	197,5	0,5
Andijon	11,6	93,8	1,2
Baliqchi	1,0	35,5	0,1
Bo'ston	0,4	123,7	0,0
Buloqboshi	11,5	572,0	1,2
Jalaquduq	2,0	192,3	0,2
Izboskan	1,3	37,6	0,1
Ulug'nor	0,3	39,2	0,0
Qo'rg'ontepa	4,7	61,2	0,5
Asaka	736,0	129,2	77,6
Marhamat	2,9	81,7	0,3
Shahrixon	6,8	36,4	0,7
Paxtaobod	1,4	80,5	0,1
Xo'jaobod	11,8	142,9	1,2

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Asaka

736,0

Andijon sn.

132,7

Xo'jaobod

11,8

Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Izboskan

1,3

Bo'ston

0,4


Ulug'nor

0,3

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **77,6** % bilan **736,0** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani **0,03** % bilan **0,3** mln AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **33,7** mln AQSh dollarini yoki jami import hajmining **3,6** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **66,8** % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**82,0** %), amaliy xizmatlar (**10,4** %) ga tegishli bo'ldi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **611,4** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **0,2** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **64,5** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023-yil yanvar-mart)

Koreya Respublikasi
43,3 %

264,8 mln.
AQSH doll.



Meksika

6,5 %

40,0 mln.
AQSH doll.



XXR

28,4 %

173,4 mln.
AQSH doll.



AQSh

4,3 %

26,0 mln.
AQSH doll.



Braziliya

6,8 %

41,6 mln.
AQSH doll.




2023- yil yanvar-mart oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **141,8** mln AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – **264,8** mln AQSh dollari (**43,3** %), XXR - **173,4** mln AQSh dollari (**28,4** %) va Braziliya – **41,6** mln AQSh dollari (**6,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **176,4** mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,7** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **18,6** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)

80,6 mln. AQSH doll.
ulushi – 45,7 %



XXR

42,3 mln. AQSH doll.
ulushi – 24,0 %



Koreya
Respublikasi

14,3 mln. AQSH doll.
ulushi – 8,1 %



Braziliya

14,1 mln. AQSH doll.
ulushi – 8,0 %



Rossiya
Federasiyasi

5,4 mln. AQSH doll.
ulushi – 3,1 %



Meksika



Sanoat mahsulotlari importi asosan rezina buyumlari (**67,3** mln AQSh dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**45,9** mln AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**37,2** mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**16,5** mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.